

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN INKLYUZIV TA'LIM FANIDAN MALAKA TEST SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Inklyuziv ta'lim fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Inklyuziv ta'lim

- 1.Inklyuziv ta'limda yordamga muhtoj bolalar toifalari;
- 2.Anomal bolalar kategoriyalari;
- 3.Inklyuziv ta'lim asosiy prinsiplari;
- 4.Logopediyaning asosiy maqsadi;
- 5.Anomal ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi;
- 6.Maxsus pedagogikaning nuqsonli bolalar toifalari;
- 7.Individual rehabilitatsiya dasturi.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Inklyuziv ta'limda yordamga muhtoj bolalar toifalari.	Inklyuziv ta'limda yordamga muhtoj bolalar rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashni, noqulay sharoitlarda kechadigan psixikaning rivojlanishini bilish va shart-sharoitlar yaratish bo'yicha bilimlarga ega bo'ladi.	5 %	2 ta
2	Anomal bolalar kategoriyalari.	Eshitish, ko'rish, kar-soqov, ruhiy rivojlanishi ortda qolgan bolalar, harakat-tayanch a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalar, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar, mujassam kompleks nuqsoni, rivojlanishda murakkab ko'p nuqsonli bolalarni o'rganishda nazariy-amaliy bilimlar berish va kategoriyalarga ajrata olish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	15 %	6 ta
3	Inklyuziv ta'lim asosiy prinsiplari.	Ta'limda tenglik va ishtirokni, huquqli va samarali ta'lim olishni ta'minlash. Inklyuziv ta'limdagi bolalarni bilish jarayonini rivojlanishni, imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda o'rganish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	7,5 %	3 ta
4	Logopediyaning asosiy maqsadi.	Imkoniyati cheklangan bolalar bilan individual ravishda o'qitish, integratsiya muhitini, bolalarni tarbiyalash va o'qitishda maxsus shart-sharoitlar yaratishni, ta'lim barcha uchun, moslashuvchan va jamoaviy o'qitilishini biladi.	17,5 %	7 ta
5	Anomal ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi.	Anomal bolalarning psixologiyasini aniqlashda, psixofiziologik rivojlanishdagi xususiyatlarni o'rganish, shular asosida integratsiyalashgan, inklyuziv yoki differensial ta'limni tashkil etish va o'rganish bo'yicha bilimlarga ega bo'ladi.	12,5 %	5 ta
6	Maxsus pedagogikaning nuqsonli bolalar toifalari.	Maxsus pedagogikaning nuqsonli bolalar toifalarini, alohida ta'limga muhtoj shaxsning rivojlanishi va tarbiyasini o'rganadi, bolani jamiyat va mamlakat hayotida faol ishtirok etishga chorlashni, maxsus pedagogikaning nuqsonli bolalar toifalari bo'yicha bilimlarga ega bo'ladi.	37,5 %	15 ta
7	Individual reabilitatsiya dasturi.	Bolalarni sog'lomlashtirish va bilish faoliyatini tashkil etishni biladi, pedagogik, psixologik va davolovchi tadbirlar tizimi bo'lib, bolalar xulq atvoridagi va rivojlanishidagi psixofizik	5 %	2 ta

		kamchiliklarini o'rganish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.		
--	--	--	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	17,5 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	62,5 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko‘rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o‘qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to‘g‘ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. V.S.Rahmanova "Defektologiya asoslari" 2017 yil
2. M.Y.Ayupova "Logopediya" 2007yil
3. P.M.Po‘latova, L.Sh.Nurmuxamedova, D.B.Yakubjonova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A.D.Sultonova "Maxsus pedagogika "2014"yil
4. V.S.Rahmanova "Defektologiya asoslari" 2017 yil
5. M.Y.Ayupova "Logopediya" 2007yil
6. M.I.Yusup o‘g‘li "Inklyuziv ta'lim" 2024 yil